



XALQ DEPUTATLARI BULUNG'UR TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 26 - iyul

VI-67-133-7-93-K/22

Bulung'ur tuman hokimligi

Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar rahbarlarining 2022-yil 2-chorak davomida amalga oshirgan ishlari to'g'risida

Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar rahbarlarining 2022-yil 2-chorak davomida amalga oshirgan ishlari to'g'risida hisobotini tinglab va muhokama qilib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining oltmish yettinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar rahbarlarining 2022-yil 2-chorak davomida amalga oshirgan ishlari yuzasidan hisobotlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumandagi sektorlarda olib borilayotgan ishlarni sifat jihatidan yanada yaxshilash maqsadida sektorlar rahbarlariga quyidagi vazifalar tavsiya etilsin:

hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida sektorga davlat muassasalari, korxonatashkilotlardan biriktirilgan xodimlarning xalq orasida muammolarini o'rganishda hamkorlikni kuchaytirish;

sektorga davlat muassasalari, korxonatashkilotlardan biriktirilgan xodimlarini ularning rahbarlari tomonidan muntazam ta'minlab berishni yo'lga qo'yish;

sektorga davlat muassasalari, korxonatashkilotlardan biriktirilgan xodimlarini o'z vaqtida ta'minlab bermagan rahbarlarga nisbatan tegishli tartibda qonuniy choralarini ko'rsin.

3. Tumandagi sektor rahbarlari (S.Astonov, S.Saidov, A.Otamurodov, Sh.Eshmurotov)ga:

fuqarolardan tushayotgan murojaatlarni ijobiy hal etish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni tizimli va samarali tashkil etib borish;

sektorda aholi muammolari bilan ishlash, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalar va tadbirlarni joylarda mas'ullar bilan birgalikda o'z vaqtida va sifatli ijrosini tashkil etish va nazorat qilish;

“Temir daftar”, “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari”ga kiritilgan ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar bilan doimiy ishlashni tashkil etish;

moddiy ko'makka muhtoj, kam ta'minlangan, iqtisodiy nochor kambag'al ro'yxatida qolgan oilalarni bosqichma-bosqich kambag'allikdan chiqarish choralarini ko'rish;

tuman Bandlikka ko'maklashish markazi bilan hamkorlikda hududda aniqlangan ishsiz va kam ta'minlangan aholini ish bilan band qilish choralarini ko'rish;

dehqon xo'jaliklari, tomorqa uchun ajratilgan yerlardan maqsadli foydalanish, meva-sabzavotchilik, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirish, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni tashkil etishda fermer xo'jaliklariga ko'maklashish bo'yicha choralar ko'rish;

sektor hududida obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini tashkil etish;

sektordagi mahalla fuqarolar yig'inlarida uchrayotgan muammolarni aniqlash hamda hal etish bo'yicha aniq maqsadga qaratilgan chora-tadbirlar belgilash;

sektor rahbari tomonidan muntazam ravishda fuqarolar qabullarini o'tkazib borish va bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tumandagi Xalq qabulxonasi bilan yaqindan hamkorlikda ish tashkil etish vazifalari yuklatilsin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlariga har oyda, sektorlarda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalarni bajarilishi samaradorligi ustidan ta'sirchan deputatlik nazoratini o'rnatish va bajarilishi kechiktirilayotgan masalalar bo'yicha mutasaddi tashkilotlarga deputatlik so'rovlarini yuborish tavsiya etilsin.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati (A.Jabborov), “Bulung'ur hayoti” gazetasi (G'.O'rolov)larga sektorlar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni muntazam ravishda ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish va joylarga chiqib, amalga oshirilayotgan islohotlarni keng aholi qatlamiga yetkazish

maqsadida televideniya va ijtimoiy tarmoqlar orqali doimiy targ‘ibot ishlarini amalga oshirish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini ta’minlash sektor rahbarlari (S.Astonov, S.Saidov, A.Otamurodov, Sh.Eshmurotov)ga hamda bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiya raislari zimmlariga yuklatilsin.

Kengash raisi



S.Astonov